



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MARKAZIY BANKI
F A R M O Y I S H

Р А С П О Р Я Ж Е Н И Е
ЦЕНТРАЛЬНЫЙ БАНК
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

2025 y. "26" noyabr

№ 1808

Toshkent sh.

**Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash
masalalari bo'yicha Markaziy bank maslahat-kengashi tarkibiga o'zgartirish
kiritish to'g'risida**

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha Markaziy bank maslahat-kengashi ishini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagilar belgilansin:

1. Markaziy bankda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratish, ularning mehnat huquqlarini himoya qilish, ishiga munosib haq to'lash, rag'batlantirish, rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish, shuningdek gender tenglikni ta'minlash masalalari yuzasidan olib borilayotgan ishlarni tahlil qilib, zarur takliflarni ishlab chiqish masalalari bo'yicha Markaziy bank **Maslahat-kengash** tarkibi ilovaga muvofiq yangi tarkibda tasdiqlansin.

2. Markaziy bank maslahat-kengashi zimmasiga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatilsin:

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashining Markaziy bankning 2025-yil 8-sentabrda tasdiqlangan 2025-2026-yillarga mo'ljallangan ish rejasida belgilangan vazifalar ijrosi ta'minlansin;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining tegishli qarorida belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, 2030-yilga qadar bank tizimida gender tenglikka erishish strategiyasini 2025-2027-yillarda amalga oshirish bo'yicha Markaziy bankning 2025-yil 8-sentabrda tasdiqlangan kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosini ta'minlansin;

Normativ-huquqiy va boshqa ichki me'yoriy hujjat loyihalarini gender tenglikni ta'minlash maqsadida yuridik xizmat tomonidan huquqiy (gender-huquqiy) ekspertizadan o'tkazishda bevosita ishtirok etilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil 27-yanvardagi 127-sonli farmoyishi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish Markaziy bank raisi o'rinbosari A. Turdaliyev zimmasiga yuklatilsin.

Raisning birinchi
o'rinbosari

N. Saydullayev

180800 7